



Nazarova Ra'no Sidiq qizi,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
e-mail: ranonazarova741@gmail.com

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL O'SMIRLAR BILAN ISHLASHDA IJTIMOY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYLARNING O'RNI

Annotatsiya. *Huquqbuzarlikka moyil o'smirlar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat yildan yilga rivojlanib bormoqda. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasida ijtimoiy pedagogik texnologiyalarning samarasi yuqoriligi bunga asos bo'lmoqda. Ushbu maqolada huquqbuzarlikka moyil o'smirlar bilan profilaktik ishlarni tashkil etishda ijtimoiy pedagogik texnologiyalarning tavsifi va ahamiyati yoritib berilgan.*

Аннотация. *С каждым годом развивается социально-педагогическая работа с подростками, склонным к правонарушениям. Основанием для этого служит высокая эффективность социально-педагогических технологий в профилактике преступности несовершеннолетних. В данной статье описаны описание и значение социально-педагогических технологий в организации профилактической работы с подростками, склонным к правонарушениям.*

Annotation. *The socio-pedagogical activity with teenagers prone to delinquency is developing year by year. The basis for this is the high effectiveness of social pedagogical technologies in the prevention of juvenile delinquency. This article describes the description and importance of social pedagogical technologies in the organization of preventive work with teenagers prone to delinquency.*

Tayanch so'zlar: *ijtimoiy texnologiya, ijtimoiy-pedagogik texnologiya, pedagogik jarayon, preventologiya, pedagogik jarayon, ijtimoiy-pedagogik texnologiya komponentlari, korreksion ishlar texnologiyasi, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmlari.*

Ключевые слова: *социальная технология, социально-педагогическая технология, педагогический процесс, профилактика, педагогический процесс, компоненты социально-педагогической технологии, технология коррекционных работ, механизмы социальной защиты молодежи.*

Keywords: *social technology, social-pedagogical technology, pedagogical process, prevention, pedagogical process, components of social-pedagogical technology, technology of correctional works, mechanisms of social protection of young people.*

Kirish. Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligi profilaktikasini tashkil etishda ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning o'zni tobora ortib bormoqda. Pedagogik faoliyatda ijtimoiy texnologiyalar hamda ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar tushunchalarining mazmun-mohiyatini anglash, ularning ilmiy tavsifini tushunish va ishlarni samarali tashkil etish huquqbuzarliklarning oldini oluvchi faoliyatni to'g'ri tashkillashtirish imkonini beradi.

Maqsad va uni asoslash. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, pedagoglarning turli pedagogik texnologiyalardan xabardorligini oshirish, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarni samarali tashkil etish davlatimiz ta'lim tizimi oldidagi asosiy vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son qarori¹ asosidagi "2022–2026-yillarda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 1-bandida "O'quv jarayonini takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlarini joriy etish" vazifalari belgilangan. Ushbu vazifa ta'lim tizimi xodimlarining ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan o'spirinlar bilan ishlash texnologiyalari bo'yicha bilimlarini oshirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Dastavval, ijtimoiy texnologiya va ijtimoiy-pedagogik texnologiya atamalarining tavsifini keltirsak. "Ijtimoiy texnologiya" atamasi Karl Popper tomonidan 1957-yilda "Tarixshunoslikning qashshoqligi" asari orqali ilmiy muomalaga kiritiladi. K. Popperring fikricha, aynan ijtimoiy texnologiya ijtimoiy takomillashtirish borasidagi taxminlarni tahlil qilish, kutilgan yoki kerakli natijaga erishish uchun harakatni ta'minlaydigan ijtimoiy omillar borasidagi savollarga javob beradi. Ijtimoiy texnologiya funksiyalari bu ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadga erishish ehtimolini oydinlashtirish va ijtimoiy amaliyotda salbiy oqibatlar doirasini aniqlashga erishishdir².

Ijtimoiy texnologiya quyidagi talablarga ega:

1. Aniq maqsadga erishish oriyentatsiyasi.

Pedagogik faoliyatda ijtimoiy texnologiyalar hamda ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar tushunchalarining mazmun-mohiyatini anglash, ularning ilmiy tavsifini tushunish va ishlarni samarali tashkil etish huquqbuzarliklarning oldini oluvchi faoliyatni to'g'ri tashkillashtirish imkonini beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son qarori // <https://lex.uz/docs/-6079561>

² Садвакасова З.М. Технологии в работе с детьми девиантного поведения. Арт-педагогический аспект: монография / З.М. Садвакасова. — Алматы: Казак университети, 2016. — 10 с.

2. Maqsadga erishish uchun ijtimoiy texnologiyaning tarkibiy komponentlariga yetarlicha ega bo'lish.

3. Shunga o'xshash sharoitlarda ijtimoiy texnologiyaning takrorlanishi (N. V. Bordovskaya)³.

Huquqbuzarlik sodir etishga moyil o'spirinlar bilan ishlash texnologiyalari preventologiya fani doirasida ham o'rganiladi. Preventologiya (lot. *praeventio* – kutish, ogohlantirish va gr. *logos* – so'z) – buzg'unchi xatti-harakatlarning oldini olish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha fanlararo bilim sohasidir. Unga ko'ra, ijtimoiy himoya dasturlari: 1) huquqiy; 2) tashkiliy; 3) axborot; 4) ilmiy-tahliliy; 5) ijtimoiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Preventologiya fani doirasida ijtimoiy mexanizmlar quyidagicha tavsiflanadi:

Ijtimoiy mexanizmlar: hayotning asosiy yo'nalishlarini qamrab olgan yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning kompleks tizimini ishlab chiqish; davlat, mintaqaviy va mahalliy darajadagi manfaatdor tomonlar sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirishning eng samarali mexanizmlarini joriy etish yoshlarining ijtimoiy rivojlanishi jarayonini yaxshilashga imkon beradi⁴.

“Ijtimoiy-pedagogik texnologiya” atamasi esa ilmiy adabiyotlarda 1990-yillarda paydo bo'lgan. Nazariy jihatdan ijtimoiy jarayonlarni texnologiyalashtirish imkoniyatini tasdiqlash maqsadida ijtimoiy texnologiyalar bolgar olimi N. Stefanov tomonidan birinchilardan bo'lib o'rganilgan. Pedagogik adabiyotlarda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirishning kelib chiqishi A.S. Makarenkoga bog'liq ekaniga ishoniladi. A.S. Makarenko pedagogik jarayonlardagi ta'lim texnologiyalari orasiga quyidagilarni kiritdi, jumladan:

- jamoani shakllantirish va rivojlantirish;
- jamoaning tarbiyaviy rolini boshqarish;
- o'quvchining shaxsiyati shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari bashorat qilish.

Ijtimoiy-pedagogik texnologiyaning obyekti shaxsning o'zi va uning elementi esa inson rivojlanishi mezonlari hisoblanadi.

Ijtimoiy-pedagogik ishning asosiy vazifasi ijtimoiy muammoni aniqlash va uning asosida yordamga muhtojlarga o'z vaqtida ijtimoiy

“Ijtimoiy-pedagogik texnologiya” atamasi esa ilmiy adabiyotlarda 1990-yillarda paydo bo'lgan. Nazariy jihatdan ijtimoiy jarayonlarni texnologiyalashtirish imkoniyatini tasdiqlash maqsadida ijtimoiy texnologiyalar bolgar olimi N. Stefanov tomonidan birinchilardan bo'lib o'rganilgan.

³ Копытин А.И. Арт-терапия наркоманий: лечение, реабилитация, постреабилитация / А.И. Копытин, Богачев О.В. – Москва: Психотерапия, 2008. – 172 с.

⁴ Крутько И.С. Введение в превентологию: учеб. пособие / И.С. Крутько, А.В. Пономарев; М-во науки и высш. образования Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. – Екатеринбург: изд-во Урал. ун-та, 2019. – С. 91.

yordam ko'rsatishga harakat qilish hamda xulqi va xatti-harakatlarini o'z vaqtida moslashtirish uchun mavjud vositalarni jalb etishdan iborat.

Muayyan vaziyatda biror texnologiyani tanlash uchun quyidagilar aniq belgilanishi kerak:

- muayyan vaziyatda kasbiy faoliyat maqsadi;
- ijtimoiy-pedagogik faoliyat obyektining xususiyatlari va imkoniyatlari;
- uni amalga oshirish shartlari;
- maqsadni amalga oshirish joyining xususiyatlari;
- o'z vaqtida maqsadga erishish imkoniyati;
- amalga oshirishning mumkin bo'lgan shakllari;
- ijtimoiy-pedagogik faoliyat subyektining xususiyatlari, imkoniyatlari;
- resurslarning tejamkorligi va samaradorligi.

Pedagogika fanlari doktori, professor Lebedova L.D. texnologik jarayonda asosiy bosqichlaridan to'rttasini aniqlaydi:

1. Tahliliy qism (ijtimoiy diagnostika) – ma'lumotlarni to'plash, uni tahlil qilish va ijtimoiy tashxisni shakllantirish.
2. Amalga oshirish – mutaxassis tomonidan obyekt va atrof-muhit bilan aloqalarni o'rnatish.
3. Ijtimoiy terapiya (aralashuv) – terapevtik tadbirlar rejasini amalga oshirish.
4. Natijalarni tahlil qilish va rejani tuzatish⁵.

Deviant xulqli bolalar bilan ishlashda amalda ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning turli tasniflari ishlab chiqilgan. Ijtimoiy pedagogika sohasidagi nazariyotchilar – N.I. Nikitina va M.F. Gluxovlar tomonidan ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning quyidagi tasnifi keltiriladi:

- *yangilik darajasiga ko'ra*: an'anaviy (o'tmish tajribasi) va innovatsion;
- *kasbiy ishda ustunlik qiladigan faoliyatga ko'ra*: maslahat, vositachilik, o'yin;
- psixoterapevtik, korreksion texnologiyalar, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish, o'spirinlarning bo'sh vaqtni tashkil etish, texnologiya, dizayn, simulyatsiya, ekspertiza, boshqaruv va boshqalar;
- *atrof-muhitini o'zgartirish yo'nalishida*: ekologik texnologiyalar, ijtimoiy muhitni yaxshilash texnologiyalari, nizoli vaziyatlarning oldini olish va hal qilish texnologiyalari, stressga chidamlilikni rivojlantirish texnologiyalari va boshqalar;

***Deviant xulqli
bolalar bilan
ishlashda amalda
ijtimoiy-pedagogik
texnologiyalarning
turli tasniflari
ishlab chiqilgan.
Ijtimoiy
pedagogika
sohasidagi
nazariyotchilar –
N.I. Nikitina va
M.F.***

⁵ Лебедева Л.Д. Практика арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. – Санкт-Петербург: Речь, 2003. – 256 с.

Makrotexnologiyalar:
jamiyat va mintaq
darajasidagi
texnologiyalar,
katta ijtimoiy
guruhlar,
yoshlar orasida
giyohvandlik,
bolaning uysizlik
muammosining
oldini olish
(masalan,
profilaktika
texnologiyalari),
bolalar va
o'smirlarni jamoat
tashkilotlari va
davlat tomonidan
qo'llab-quvvatlash
texnologiyalari.

– *ijtimoiy-pedagogik texnologiyani amalga oshirish bo'yicha: individual* (o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi saqlash, o'zini o'zi ta'minlash jarayonlarini faollashtirish texnologiyalari); *jamoaviy* (ijtimoiy moslashtirish texnologiyalari, ishsizlarni ishga joylashtirish texnologiyalari, uysiz bolalarni moslashtirish texnologiyalari, nogironlarni moslashtirish texnologiyalari); *ommaviy* (tashviqot texnologiyalari, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy reklama texnologiyalari);

– *kasbiy faoliyat jarayonida amaliy ishtirok etish darajasiga ko'ra:* xona (holatni yoki muammoni mantiqiy tahlil qilish asosida olingan ma'lumotlar), laboratoriya (maxsus sun'iy ravishda yaratilgan sharoitlar asosidagi tajribalar natijalari), maydon (jamoat muhitida haqiqiy ish natijasida olingan ma'lumotlar).

Taniqli sotsiolog L.Y.Diatchenko ijtimoiy texnologiyalarning yanada kengaytirilgan tasnifini beradi:

Makrotexnologiyalar: jamiyat va mintaq darajasidagi texnologiyalar, katta ijtimoiy guruhlar, yoshlar orasida giyohvandlik, bolaning uysizlik muammosining oldini olish (masalan, profilaktika texnologiyalari), bolalar va o'smirlarni jamoat tashkilotlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash texnologiyalari.

Mezotexnologiyalar: aholi yashaydigan shahar darajasidagi texnologiyalar katta ijtimoiy guruhni qamrab oladi (masalan, jazo o'taganlarni ishga joylashtirish texnologiyalari; nogiron bolalarni zamonaviy jamiyat sharoitlari imkoniyatlariga moslashtirish texnologiyalari).

Mikrotexnologiya kichik birlashmalar uchun mo'ljallangan bo'lib, mikro darajadagi ijtimoiy jarayonlar, maktabda katta oilalar uchun o'z-o'ziga yordam guruhlarini yaratish texnologiyalari, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari⁶.

Pedagog Z.M.Sadvakasova deviant xulq-atvorli o'spirinlar bilan ishlashda ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning yana bir tasnifini ko'rsatadi:

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar: art-terapiya, hayvonlar terapiyasi, musiqa terapiyasi, raqs terapiyasi, qum terapiya, bog' terapiyasi, gerbaroterapiya, imagoterapiya, kinezioterapiya, izoterapiya, fototerapiya, biblioterapiya, ritm terapiyasi, rivojlanish terapiyasi, mahorat terapiyasi, mashg'ulot terapiyasi, ekskursiya terapiyasi, kino terapiyasi, ertak terapiyasi, rang terapiyasi, sog'lom kulgi terapiyasi, psixogimnastika va artterapiya.

⁶ Копытин А.И. Системная арт-терапия / А. И. Копытин. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 224 с.

Terapevtik texnologiyalar: moritoterapiya, gestalt terapiyasi, logoterapiya, tabiiy psixoterapiya, dori terapiyasi, tanatoterapiya va ratsional-emotiv terapiya.

Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar:

- diagnostika texnologiyalari;
- ijtimoiy-pedagogik profilaktika faoliyati texnologiyalari;
- reabilitatsiya texnologiyasi;
- dizayn texnologiyasi;
- tuzatish texnologiyasi;
- konsalting texnologiyasi;
- vositachilik, volontyorlik texnologiyasi;
- dam olish texnologiyalari⁷.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish sharti innovatsiyalarga ochiqlik va ularni yaxlit pedagogik jarayonga kiritishdan iborat.

1-jadval

Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish komponentlari

Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish komponentlari	
Jihatlar: – ilmiy; – protsessual-tavsiflovchi; – protsessual-ta’sir ko’rsatuvchi.	Rivojlanish xususiyatlari: – tahliliy-bashorat; – diagnostika; – tizimni modellashtirish; – loyihalash va tashkillash; – faollashtirish; – instrumental va amaliy.
Tuzilish bosqichlari: – diagnostik va prognostik bosqich; – optimal texnologiyani tanlash (ishlab chiqish) bosqichi; – tanlangan texnologiyani amalga oshirish uchun bevosita tayyorgarlik bosqichi; – amalga oshirish bosqichi; - ekspert baholash.	Samaradorlikni baholash mezonlari: – universallik; – konstruktivlik; – samaradorlik; – tezkorlik; – nisbatan soddalilik; – ishonchlilik; – moslashuvchanlik; – rentabellik yoki iqtisodiy maqsadga muvofiqlik; – foydalanish qulayligi.

Deviant xulqli bolalar bilan korreksion ishlarni tashkil etish texnologiyasi quyidagilarni o’z ichiga oladi:

1. Muayyan shaxs, bola yoki maktab o’quvchilari guruhining deviant xulq-atvori sabablarini tashxislash.

⁷ Садвакасова З.М. Технологии в работе с детьми девиантного поведения. Арт-педагогический аспект: монография / З.М. Садвакасова. – Алматы: Қазақ университети, 2016. – 16 с.

O'smirlarning deviant xulq-atvori ko'rinishlarini bostirish, ularning ruhiy beqarorlik holatini boshqarish vositasi sifatida "energiya chiqarish maydoni" (intensiv faollik) yaratish texnologiyasi. Texnologiya vazifasi – sport yoki ish faoliyati (sport va karting klublari, yozgi mehnat va turizm lagerlari) orqali jalb qilish.

2. Individual va guruh darajasiga muvofiq tuzatuvchi ish dasturlarini ishlab chiqish.

3. Deviant xulq-atvorni tuzatish doirasidagi mazmunli faoliyat (psixologik-pedagogik seminarlar, bolalar va ularning ota-onalari bilan maslahatlashuvlar). Ushbu jarayonda xulq-atvordagi og'ishlar, ularning sabablari, bartaraf etish va tuzatish usullari muhokama qilinadi.

4. Ishlab chiqilgan dasturlarni ta'limni tashkil etish darajasida amalga oshirish;

5. O'smirlar va ularning ota-onalarini maktabda yoki maktabdan tashqarida olishlari mumkin bo'lgan yordamlar, har xil turdagi yordam ko'rsatadigan muassasalar haqida xabardor qilish.

Taniqli pedagog Z.G. Yagudin, o'z navbatida, deviant bolalarni qayta tarbiyalash uchun quyidagi ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqdi:

1. *Huquqiy savodxonlikni shakllantirish texnologiyasi* (huquqiy intensiv), o'smirlarning deviant xatti-harakatlariga motivatsiyani to'xtatuvchi ta'sirga erishish qobiliyati bo'yicha huquqiy savodxonlikni takomillashtirish.

2. O'smirlarning deviant xulq-atvori ko'rinishlarini bostirish, ularning ruhiy beqarorlik holatini boshqarish vositasi sifatida *"energiya chiqarish maydoni"* (intensiv faollik) yaratish texnologiyasi. Texnologiya vazifasi – sport yoki ish faoliyati (sport va karting klublari, yozgi mehnat va turizm lagerlari) orqali jalb qilish.

3. *Yakka tartibdagi tuzatish yordami texnologiyasi* (intensiv reabilitatsiya). Ushbu texnologiyani amalga oshirish shakllari: ijtimoiy-pedagogik individual xarita asosida yordam berish, qo'llab-quvvatlash hamda individual psixologik qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy reabilitatsiya markazidan mutaxassislarni taklif qilish.

Shuningdek, tarbiyasi o'gir bolalar bilan ishlashda quyidagi ijtimoiy-pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi:

- "Ijtimoiy muvaffaqiyat";
- "Rag'batlantirish";
- "Pozitiv muloqot";
- "Ijtimoiy muhitni o'zgartirish";
- "Muammoga oriyentatsiya";
- "Tarbiyalanuvchilarni motivatsiyalash";
- "Axloqiy (axloqiy, estetik va boshqa) fazilatlarini rivojlantirish";
- "Startup"⁸.

⁸ Садвакасова З.М. Технологии в работе с детьми девиантного поведения. Арт-педагогический аспект: монография / З.М. Садвакасова. – Алматы: Қазақ университети, 2016. – С. 50-52.

Ushbu texnologiyalardan foydalanishda bola va uning oilasini individual xususiyatlari inobatga olinadi hamda pedagog tomonidan ijodiy yondashgan holda boshqa metodlar va usullar qo'llanilishi mumkin.

Yakuniy qism. Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar deviant xulqli bolalar bilan ishlashda o'ziga xos yo'nalishni belgilaydi, o'spirin bilan olib boriladigan ishlarni rejalashtirishda hamda samarali natijaga erishishda asosiy metodlarni taqdim qiladi. Xususan, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishda ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarni tanlash va ularni amalga oshirish zarur natijaga erishish uchun muhim jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son qarori* // <https://lex.uz/docs/-6079561>
2. *Садвакасова З.М. Технологии в работе с детьми девиантного поведения. Арт-педагогический аспект: монография / З.М. Садвакасова. – Алматы: Қазақ университети, 2016.*
3. *Копытин А.И. Арт-терапия наркоманий: лечение, реабилитация, постреабилитация / А.И. Копытин, Богачев О.В. – Москва: Психотерапия, 2008. – 172 с.*
4. *Крутько И.С. Введение в превентологию: учеб. пособие / И.С. Крутько, А.В. Пономарев; М-во науки и высш. образования Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. – Екатеринбург: изд-во Урал. ун-та, 2019.*
5. *Лебедева Л.Д. Практика арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. – Санкт-Петербург: Речь, 2003. – 256 с.*